

**Jumanazarova Sevinch G‘ulom qizi , Esanova Xurshida O‘ralbek qizi  
Guliston Davlat Pedagogika instituti  
Ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti  
Musiqa ta’limi yo‘nalishi 2-kurs talabalari**

## **RUBOB MILLIY CHOLG‘U ASBOBINI O‘RGANISHNING AYRIM USULLARI**

**Annotatsiya:** Ma'lumki, musiqiy cholg‘ular xalqlarning moddiy hamda ma'naviy boyligidir. Har bir xalq o‘z milliy merosi, davrlar osha yuzaga kelgan tarixiy an'analarini milliy ohanglar orqali tarannum etuvchi va xalqning milliy ma'naviyatiga xos yaratilgan amaliy san'at namunalarini orqali ularga mos keluvchi cholg‘u asboblariga egadirlar. O‘bek musiqiy cholg‘ular olami bu xususda ma'nani va moddiy nuqtai nazardan boy hamda rang-barang ekanligini e'tirof etib o'tish lozimdir. Rubob — torli cholg‘u asbobi. Rubob eng qadimiy cholg‘u asboblari turiga kiradi. Noxun (mediator) bilan chertib chalinadi. O‘zbek, tojik, uyg‘ur, afg‘on va boshqa sharq xalqlari orasida keng tarqalgan. Ba'zi olimlar fikriga ko‘ra, qadimda 2 torli kamonli rubobdan zamonaevi skripka yuzaga kelgan.

**Kalit so‘zlar:** Rubob, noxun, rubob turlari, qashqar rubobi, afg‘on rubobi, pomir rubobi, tarixi, torlari, dastasi, notalari, barmoqlar, shtrix.

**Абстрактный:** Известно, что музыкальные инструменты являются материальным и духовным богатством народов. У каждого народа есть свои музыкальные инструменты, которые прославляют его национальное наследие, исторические традиции, сложившиеся с течением времени через национальные мелодии, и подходят к ним через образцы практического искусства, созданные с учетом национальной духовности народа. Следует признать, что мир музыкальных инструментов «Обек» богат и красочен как по смыслу, так и по материалу. Рубаб – струнный инструмент. Рубаб – один из древнейших музыкальных инструментов. Щелкаем с помощью Нохуна (медиатора). Распространен среди узбеков, таджиков, уйголов, афганцев и других восточных народов. По мнению некоторых ученых, современная скрипка была создана в древности из двухструнного смычка.

**Ключевые слова:** Рубаб, Нохун, виды рубоба, Кашгарский рубоб, Афганский рубаб, Памирский рубоб, история, струны, рукоятка, ноты, пальцы, планка

**Abstract:** It is known that musical instruments are the material and spiritual wealth of nations. Each nation has its own musical instruments that celebrate its national heritage, historical traditions that have emerged over time through national melodies, and are suitable for them through examples of practical art created specific to the national spirituality of the people. It should be recognized that the world of Obek musical instruments is rich and colorful in terms of meaning and material. Rubob is a string instrument. Rubab is one of the oldest musical instruments. It is clicked with Nohun (mediator). It is common among Uzbek, Tajik, Uyghur, Afghan and other eastern peoples. According to some scientists, the modern violin was created in ancient times from a 2-stringed bow.

**Keywords:** Rubob, Nohun, types of rubob, Kashgar rubob, Afghan rubob, Pamir rubob, history, strings, handle, notes, fingers, bar

## **KIRISH**

Cholg‘u musiqa ijrochilik san’ati o‘zbek xalqining boy musiqa madaniyatida salmoqli o‘rin tutadi. O‘rta Osiyoda yashagan buyuk olim, faylasuf Abu Nasr Farobiyning musiqa haqidagi risolasida shunday deb yozgan: “Kishi ovoziga yaqin tovush chiqaradigan cholg‘u sozlar - g‘ijjak, rubob, nay va surnaydir, ushbu cholg‘ular inson ovoziga juda yaqinligini ta’kidlaydi. Qolaversa, cholg‘u sozlar ashulaga ham jo‘r bo‘ladi, ashulaning boshlang‘ich musiqasini va uning orasidagi cholg‘u qismlarini hosil qiladi”. Farobiyning bergan ta’riflari hozirgi davrga qadar saqlanib, rivojlanib kelmoqda. XVI-XVII- asrlarda yashab ijod etgan buxorolik Najmuddin Kavkabiyy va Darvish Ali Changiy risolalarida ham cholg‘u sozlarining mukammal ro‘yxati, ularning kelib chiqishi va sozandalar haqida qimmatli ma’lumot berilgan. Darvish Ali Changiyning o‘zi ham rebab chalgan, rubob cholg‘usi o‘sha davrda rebab deb yuritilgan.

## **ADABIYOTLAR VA METOD**

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, obyektivlik, induktiv va deduktiv usullaridan foydalanildi. Rubob milliy cholg‘u asbobini o‘rganishning ayrim usullari bayon etildi. Amirova Muattar O‘tamova, Xolbekov.M larning “Ruboblar tarixi”, X.Nurmatovning “Rubob darsligi” kitoblari metodologik manba bo‘lib belgilandi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALARI**

Hozirda rubobning uch xil turi mayjud: qashqar rubobi, afg‘on rubobi va pomir rubobi.

Qashqar rubobi Qashqarda tarqalgan. Shuning uchun qashqar rubobi deb ataladi. Qashqar rubobining uzunligi 80-100 sm. Qashqar rubobining cho‘michsimon kosasi tut kabi qattiq daraxtlar yog‘ochidan yasaladi. Kosasining usti esa teri bilan qoplanadi. Qashqar rubobining dastasi uzun bo‘lib, oxiri qayrilgan bo‘ladi. Kosasining oldida shoxga o‘xshagan ikkita gajagi bor. Ular shakl berish bilan birga yuqori notalarni chalishda chap qo‘l uchun tayanch vazifasini bajaradi. Qashqar rubobi dastasida 19 tadan 24 tagacha parda bo‘ladi. Eski ruboblarda pardalar ichakdan qilingan bo‘lsa, hozirgi zamonaviy ruboblarning pardalari metalldan qilinadi. Qashqar rubobining beshta simi bor. Ular kvarta-kvinta oralig‘ida sozlanadi. Past birinchi ikki juft simi ochiq chalganda “lya” tovushini chiqaradigan qilib sozlanadi, ikkinchi juft simi “mi” tovushiga va uchinchi simi “si” yoki “lya” tovushiga sozlanadi. Diapazoni kichik oktava “si” yoki “lya” tovushidan uchinchi oktava “lya” tovushigacha. O‘zbek bastakorlaridan Muhammadjon Mirzaev, sozandalaridan Ari Boboxonov, N. Qulabdullaev, kompozitorlardan Ibrohim Hamraev, Mustafо Bafoev va boshqalar qashqar rubobi uchun turli janrlarda asarlar yaratishgan.

Qashqar rubobining qayta ishlangan zamonaviy turi rubob prima o‘z imkoniyatlari bilan rus domrasiga yaqin, to‘rt metall tori kvinta oralig‘ida sozlanadi. Orkestrda va yakka soz sifatida ishlataladi. Sozgar usta S.E.Didenko (1911-1988) tomonidan ishlangan rubob prima cholg‘usi yuqori registrdagи tovushlarga, katta tovush diapazoniga va keng ijrochilik imkoniyatlariga ega bo‘lib, mizrob bilan chalinadigan sozlar sirasiga kiradi. Rubob prima kosasi yog‘och plastinkalardan dastasi esa o‘rik daraxti yog‘ochidan ishlanadi. Kosasiga baliq terisi qoplanadi. Cholg‘u torlarini tutib turish uchun kosa tagiga to‘rtta ilmoqlar o‘rnataladi. Kosa bilan dasta tutashgan joyida, dastaning ikki tomonida shoxsimon fason qulog‘i mavjud bo‘lib, ular o‘ziga xos bezak vazifasini o‘taydi. Rubob prima dastasi 24 ta metall plastinkalar bilan bo‘lingan bo‘lib, ular orasidagi masofa parda deb yuritiladi. Rubob primaning torlari to‘rttaligi ularning barchasi metalldan ishlanganligi cholg‘uda o‘zbek xalq musiqasi namunalari, O‘zbekiston kompozitorlari ijodi namunalarini ham ijro etish imkonini beradi.

Afg‘on rubobi kosa, dasta, bosh qismidan tashkil topgan. Kosasi - bir-biriga yopishtirilgan bir nechta taxtachadan, pastki va yuqori qopqoqdan, torlarni mustahkamlashga mo‘ljallangan ilmoqlardan iborat. Ustki qopqoqqa baliq terisi qoplanadi. Dasta - kosaga mahkam biriktirilib,

unga 19 ta parda o'rnatilgan. Hozirgi vaqtida dastasi yong'oq daraxtidan yasalmoqda. Dastasining uzunligi 8-10 sm bo'ladi. Afg'on rubobi takomillashgandan keyin beshta ochiq torlari sof kvarta intervaliga sozlanadigan bo'ldi. Sozlarning torlari ichakdan bo'lib, birinchi juft torlar kesimi 0,8 mm, ikkinchi juft torlar kesimi 1,2 mm, uchinchi tor (bittalik) kesimi 1,8-2 mm yog'onlikda taqiladi. Diapazoni kichik oktava "lya" tovushidan uchinchi oktava "mi" tovushigacha.

Shunday qilib rubobning uchta turi bilan ham tanishib oldik. Xo'sh rubob chalishni o'rganishda avvalambor nimalarga e'tibor berishimiz kerak? Rubob chalishni o'rganishimizdan oldin rubobda qo'limiz yaxshi yurishi uchun turli mashqlar qilishimiz kerak. Masalan, barmoqlarimizni uzmasdan, ketma-ket holda rubob dastasida yurgizamiz va yana ana shunday ketma-ketlikda orqaga qaytamiz. Ushbu mashqni tezroq va ko'p marotaba takrorlasak barmoqlarimiz rubob dastasiga o'rganadi, tez yuruvchan bo'ladi va ko'pchilikda uncha ishlamaydigan, kuchsiz bo'lgan to'rtinchchi barmog'izni (jimjiloq) ham yaxshi ishlashga yordam beradi. Yoki bo'lmasa, faqatgina birinchi va to'rtinchchi barmoqlarimizni qo'ygan holda ham bajarsak bo'ladi. Unda ham vaqt o'tgan sari tezligimiz kuchayganini ko'rishimiz mumkin. Har bir rubob o'rganuvchi inson chalayotgan asaridagi barmoqlarni qanday qo'yish kerakligini anniq bilishi lozim. Chunki asardagi har bir notaning o'z barmog'i bo'ladi va ana shu qoida asosida barmoqlarimiz joylashadi. Barmoqlarimizning to'g'ri qo'yishni birinchi navbatda o'rganib olsak, keyinchalik barmoqlarimizning o'zları o'z yo'lini topib ketishadi. Barmoqlarimizni to'g'ri qo'ysak biz asarimizni qiynalmasdan, tezkorlik bilan bemalol chala olamiz. Barmoqlarimizni to'g'ri qo'yishimizdan tashqari yana muhim qoidalardan biri bu shtrixlarga e'tibor berishdir. Shtrix- bu o'ng qo'limizda noxun (mediator) yordamida pastga va yuqoriga qaratib chalinadigan harakatlarga aytildi. Asarimizda qaysi notada shtrix tepaga, qaysisida pastga ekanligini diqqat bilan o'rganib, to'g'ri shtrix bilan chalishimiz kerak. Odatda, yarimalik notalarimizda tremolo, choraktalik notalarimizda shtrix pastga, nimchorak notalarimizda esa shtrix tepaga tarzda qo'yiladi. Tremolo deb, bir tovushning cho'zimi hisobida juda tezlik bilan pastga va yuqoriga qilib chalib takrorlanishiga aytildi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Hozirda yurtimizda maqomlarga, xalq kuylari va ashulalariga talab xalqimiz orasida tobora ortib bormoqda. Ana shunday talab va ehtiyojni qondirish maqsadida yetuk ijrochi mutaxassislarini tarbiyalash ma'uliyatli vazifalardan biri hisoblanadi. O'zbek xalqining boy musiqa merosini o'rganish va uni keng omma ichida targ'ib qilish ishlari san'atimizning jonkuyar tashabbuskorlari, mohir ijrochilar zimmasida bo'lmosg'i lozim. Rubob asbobi yuqorida aytginimdek boy tarixga ega bo'lgan, bizning milliy asbobimizdir. Rubob chalishni mukammal darajada o'rganishni istasak, barmoqlarimiz joylashuvini, shtrixlarni qanday chalish qoidalarini o'rganish va yuqoridagi ko'rsatmalarga amal qilish lozimdir.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Amirova Muattar O'tamova, Xolbekov.M larning "Ruboblar tarixi"- maqolasidan.
- 2.X.Nurmatovning "Rubob darsligi"- kitobidan.
- 3.<http://komilaxon.blogspot.com>- saytidagi ma'lumotlardan.
- 4.Qobiljon Usmonov. "Boshlang'ich rubob darsligi" Toshkent- 2004.
- 5.Azat Gochbakarov. "Rubob prima cholg'u ijrochiligi" Toshkent-2015.
- 6.G'ulomqodir Ergashev. "Afg'on rubobi darsligi" Toshkent-2004.
- 7.Mirzaev O'ktam Oripovich. "Cholg'u ijrochiligi va ansambl" Navoiy-2019.